

IQLIM O‘ZGARISHINING O‘ZBEKISTON TABIIY ZONALARIGA TA’SIRI

Ahmedova Naziraxon Sobirovna

49-umumiy o‘rta ta’lim maktabi geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishining O‘zbekiston hududidagi asosiy tabiiy zonalarga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Tabiiy-geografik zonalarining (cho‘l, dasht, tog‘li hududlar va vodiylar) ekologik holati, biologik xilma-xilligi va iqlim omillariga nisbatan o‘zgaruvchanligi ilmiy manbalar va statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari — suv resurslarining kamayishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, o‘simlik va hayvonot dunyosining yo‘qolishi kabi muammolar alohida e’tiborga olingan. Shuningdek, maqolada iqlim o‘zgarishiga moslashish choralariga ham e’tibor qaratilgan hamda barqaror rivojlanish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, tabiiy zonalar, O‘zbekiston geografiyasi, cho‘llanish, ekologik muammolar, suv tanqisligi, biologik xilma-xillik, tog‘ hududlari, adaptatsiya, barqaror rivojlanish

So‘nggi o‘n yilliklarda global miqyosda kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishi jahondagi barcha davlatlar qatori O‘zbekiston Respublikasiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Atmosferadagi issiqxona gazlari miqdorining ortishi, haroratning ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik miqdorining o‘zgarishi kabi omillar mintaqadagi tabiiy-geografik jarayonlarni keskin o‘zgartirib yubormoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston hududidagi tabiiy zonalar — cho‘l, dasht, tog‘li va vodiylar bu o‘zgarishlarga nisbatan sezuvchan bo‘lib, ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda.

Iqlim o‘zgarishi natijasida suv resurslarining kamayishi, yerlarning degradatsiyasi, cho‘llanishning kengayishi, o‘simlik va hayvonot dunyosining qisqarishi kabi ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu holatlar nafaqat tabiiy muhitga, balki aholi salomatligi, qishloq xo‘jaligi faoliyati va iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning asosiy tabiiy zonalarida iqlim o‘zgarishining tahlili, ularning ekologik holatiga ko‘rsatgan bevosita va bilvosita ta’siri, shuningdek, mavjud muammolarning yechimiga doir ilmiy takliflar keltiriladi. Maqola ilmiy manbalar, statistik ma’lumotlar va hududiy kuzatuvlar asosida tayyorlangan bo‘lib, O‘zbekistonda barqaror ekologik taraqqiyot masalasida

O‘zbekiston tabiiy zoO‘zbekiston hududi tabiiy-geografik jihatdan turli xil zonalarga bo‘lingan bo‘lib, ularga asosan cho‘l, dasht, tog‘li va vodiylar kiradi.

Har bir zona o‘zining iqlim sharoiti, relyefi, tuproq va o‘simlik qoplami bilan ajralib turadi. Ushbu zonalarning har biri iqlim o‘zgarishlariga turlicha darajada sezuvchandir.

Cho‘l zonasi va iqlim o‘zgarishi. O‘zbekiston hududining katta qismini egallagan cho‘l zonasi (Qizilqum, Ustyurt platosi) qurg‘oqchil iqlim sharoitida joylashgan. So‘nggi yillarda bu zonada yozgi haroratning oshishi, yomg‘irli kunlarning kamayishi va bug‘lanish darajasining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa tuproqdagi namlik miqdorining kamayishiga, o‘simliklarning qurib qolishiga va cho‘llanish jarayonining tezlashishiga olib kelmoqda.

Misol: Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida qumli bo‘ronlar soni ortmoqda, bu esa aholi salomatligi va qishloq xo‘jaligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Dasht zonasi va o‘zgaruvchan iqlim. Dasht zonasi asosan markaziy va shimoliy hududlarda (Navoiy, Samarqand, Jizzax viloyatlari) joylashgan. Iqlim o‘zgarishi bu hududda yog‘ingarchilik miqdorining notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda. Bahorgi yog‘ingarchilikning kamayishi g‘alla va boshqa ekinlar hosildorligining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Tuproq unumdorligi pasayib, eroziya kuchaymoqda.

Tog‘li hududlarda iqlim o‘zgarishi oqibatlar. Tog‘li zonalar (Toshkent, Namangan, Andijon va Surxondaryo viloyatlarining tog‘ etaklari) iqlim o‘zgarishiga juda sezuvchan hisoblanadi. So‘nggi yillarda bu hududlarda muzliklarning qisqarishi, bahor faslida sel va ko‘chkilarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Muzliklar suv manbai hisoblanganligi sababli, ularning erishi suv ta‘minotiga tahdid tug‘diradi.

Vodiy zonasi va antropogen ta‘sir kuchayishi. Farg‘ona vodiysi kabi zich aholiga ega hududlarda iqlim o‘zgarishining tabiiy va antropogen omillari o‘zaro uyg‘unlashgan. Aholi sonining o‘sishi, sanoatlashtirish va transport vositalarining ko‘payishi issiqxona gazlari miqdorini oshirmoqda. Bu esa hududdagi mikroiklimning o‘zgarishiga, yozda issiqlik to‘lqinlarining kuchayishiga olib kelmoqda.

Iqlim o‘zgarishining umumiy oqibatlar. O‘zbekiston tabiiy zonalarida kuzatilayotgan asosiy oqibatlar quyidagilardan iborat:

- Cho‘llanish va qumli bo‘ronlar sonining ortishi
- Suv resurslarining kamayishi (ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida)
 - 1) Qishloq xo‘jaligi faoliyatida beqarorlik
 1. Tuproq eroziyasi va degradatsiyasi
- Biologik xilma-xillikning yo‘qolishi

O‘zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlar tomonidan iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirilarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish: Quyosh va shamol energiyasi infratuzilmasi rivojlantirilmoqda. Bu, ayniqsa, cho‘l zonalarida energiyaga bo‘lgan ehtiyojni ekologik toza usulda qondirish imkonini beradi.

Suv resurslarini tejash texnologiyalari: Tomchilatib sugʻorish, suv tejovchi texnika va suv sarfini avtomatlashtirish tizimlari joriy etilmoqda.

Yashil hududlarni barpo etish: Shahar va sanoat zonalari atrofida daraxt ekish, yashil zonalarini kengaytirish orqali mikroiklimni yumshatish choralari koʻrilmoqda.

Ekologik monitoring tizimlari: Meteorologik stansiyalar soni oshirilmoqda, sunʻiy yoʻldosh kuzatuvlari yordamida iqlim oʻzgarishlari doimiy nazoratga olinmoqda.

Aholini xabardor qilish va taʼlim: Iqlim boʻyicha bilimlar taʼlim tizimiga joriy qilinmoqda, aholining ekologik madaniyati oshirilmoqda.

Iqlim oʻzgarishining mahalliy hududlarga taʼsirini chuqur oʻrganish va prognozlash uchun ilmiy tadqiqotlar zarur. Shu nuqtai nazardan, quyidagi yoʻnalishlarda ilmiy faoliyatni kuchaytirish tavsiya etiladi:

1. Har bir tabiiy zona boʻyicha alohida iqlim modellarini ishlab chiqish
2. Hududiy biosfera va geosistemalarning oʻzgarish dinamikasini tahlil qilish

- Geoinformatsion tizimlar (GIS) va masofadan zondlash texnologiyalarini ilmiy tahlilga qoʻllash

- Mahalliy iqlim xatarlarini baholovchi xaritalar yaratish

- Qishloq xoʻjaligi ekinlari uchun mos iqlim sharoitlarini aniqlash

Iqlim oʻzgarishining barqaror rivojlanishga taʼsiri. Iqlim oʻzgarishi Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan:

Qishloq xoʻjaligi mahsuldorligi: Harorat oʻzgarishi va suv tanqisligi mahsulot sifatini va hosildorlikni pasaytirmoqda. Bu oziq-ovqat xavfsizligiga xavf tugʻdiradi.

Aholi salomatligi: Havo ifloslanishi, qurgʻoqchilik va issiqlik toʻlqinlari yurak-qon tomir va nafas olish kasalliklarining koʻpayishiga sabab boʻlmoqda.

Iqtisodiy yoʻqotishlar: Ekstremal ob-havo hodisalari (sel, shamol, qurgʻoqchilik) natijasida infratuzilma, ekin maydonlari va yashash joylariga zarar yetmoqda.

Barqaror rivojlanishni taʼminlash uchun iqlim xavfini milliy rivojlanish strategiyalariga integratsiyalash lozim.

Xulosa

Oʻzbekiston tabiiy zonalari — choʻl, dasht, togʻli va vodiylar hududlar — iqlim oʻzgarishining bevosita va bilvosita taʼsirlariga nisbatan turlicha sezuvchanlikka ega boʻlsa-da, umumiy ekologik muvozanat uchun tahdid kuchaymoqda. Haroratning ortishi, yogʻingarchilik miqdorining kamayishi, suv resurslarining qisqarishi va tuproq degradatsiyasi kabi jarayonlar ushbu hududlarda barqaror rivojlanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, iqlim oʻzgarishi nafaqat tabiiy muhitga, balki inson salomatligi, qishloq xoʻjaligi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka ham

jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ayniqsa, tog'li hududlarda muzliklarning erishi, cho'l zonalarida qumli bo'ronlar sonining ortishi, dasht zonalarida esa suv tanqisligi ekologik va iqtisodiy xavflarni kuchaytirgan.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va moslashish choralari yanada takomillashtirish, ekologik monitoringni kuchaytirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik doirasida iqlim xavfini kamaytirishga qaratilgan strategik rejalarning amalga oshirilishi O'zbekistonning ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ясаманов Н.А. Древние климаты Земли. – Л.: Гидрометеиздат, 1985.– 296 с.
2. Будыко М.И. Антропогенные изменения климата. –Л.: Гидрометеиздат, 1987. – 405 с.
3. ZS Shoxo'jayeve. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: - 2012
4. Kurbonov, A. B., & Shoxo'jaeva, Z. S. (2019). Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(6), 5123-5126.
5. Shoxo'jayeve, Z. S., & Norqobilov, M. (2020). Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. Наука и техника мировые исследования (pp. 25-28)